FARG‘ONA VILOYATI BAG‘DOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-noyabr | 304-11-152-Q/24 | Bag‘dod tumani hokimligi

Tumandagi transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining 19.01.2024-yildagi “Yoʻl harakati toʻgʻrisida”gi OʻRQ-900-son qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tartibini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 125-son qaroriga asosan tumandagi transport vositalarini 2025-yil texnik koʻrikdan oʻtkazish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tartibini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 125-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga asosan, Transport vositalarining majburiy texnik koʻrigi (keyingi oʻrinlarda — texnik koʻrik) Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yoʻl harakati xavfsizligi xizmati (keyingi oʻrinlarda — DYHXX) organlari hamda tadbirkorlik subektlari — yuridik shaxslar (keyingi oʻrinlarda — tadbirkorlik subektlari) tomonidan mazkur Nizomga muvofiq oʻtkaziladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat koʻrsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga (davlat boshqaruvi organlari hamda ularning hududiy boʻlinmalariga, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari, shuningdek, xavfli yuklarni tashish uchun moslashtirilgan transport vositalari bundan mustasno) tegishli boʻlgan Ml, M2, M3, N1, N2, N3 toifadagi transport vositalari tadbirkorlik subektlari tomonidan texnik koʻrikdan oʻtkaziladi.

Davlat boshqaruvi organlari hamda ularning hududiy boʻlinmalariga, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari, shuningdek, xavfli yuklarni tashish uchun moslashtirilgan transport vositalari Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik koʻrikdan oʻtkaziladi.

3. Davlat boshqaruvi organlari hamda ularning hududiy boʻlinmalariga, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli, shuningdek, xavfli yuklarni tashish uchun moslashtirilgan transport vositalarining texnik koʻrigi transport vositalari roʻyxatdan oʻtkazilgan (vaqtincha roʻyxatdan oʻtkazilgan) joyda yoki ularning murojaatlariga koʻra eksterritoriallik tamoyili asosida quyidagi joylarda texnik koʻrikdan oʻtkaziladi:

zarur shart-sharoitlarga (texnik diagnostika uskunalariga, koʻtarish moslamalariga yoki qarab chiqish uchun chuqurchalarga, nazorat-oʻlchash asboblariga, asfalt yoki beton bilan qoplangan bir tekis gorizontal maydonchaga) va malakali mutaxassislarga ega boʻlgan tashkilotlarda;

texnik xizmat koʻrsatish stansiyalarida;

DYHXXning diagnostika stansiyalarida.

Transport vositalarini texnik koʻrikdan oʻtkazish joylari DYHXXning hududiy boʻlinmalari tomonidan belgilanadi.

Tashkilotlarda texnik koʻrik boshlangunga qadar barcha diagnostika asbob-uskunalari tekshirilishi va ish holatiga keltirilishi zarur.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik koʻrikdan oʻtkazilsin.

a) tijorat asosida yoʻlovchilar tashish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va oʻrindiqlar soni 8 ta va undan ortiq boʻlgan (haydovchining oʻrnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, ogʻir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan koʻp boʻlmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga oʻn bir yildan oʻn toʻrt yilgacha (oʻn toʻrtinchi yili ham) boʻlgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq boʻlgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq boʻlmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari),

shuningdek, ishlab chiqarilganiga oʻn besh yil va undan ortiq boʻlgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik koʻrikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Ishlab chiqarilganiga oʻn yilgacha (oʻninchi yili ham) boʻlgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik koʻrikdan ixtiyoriy ravishda oʻtkaziladi..

Mazkur Nizomning 5-bandi “a” kichik bandida koʻrsatilgan transport vositalarining texnik koʻrigi:

birinchi marta — 1-mart — 30-iyunda;

ikkinchi marta — 1-sentabr — 31-oktabrda oʻtkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik koʻrigi 1-yanvardan — 31-dekabrga qadar oʻtkazilsin.

5. Tumandagi transport vositalarini texnik koʻrikdan oʻtkazish komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalarining 2025-yilgi majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazishni 1 va 2-bosqichi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Majburiy texnik koʻrik davomida komissiya tarkibiga ish olib borgan xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

7. Ushbu qaror rasman eʻlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining oʻrinbosari U.Yigitaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **G‘.Soliyev**